

Oasis maxfiylik siyosati

Qo'llangan atamalar

| | |
|--|--|
| Shaxsiy ma'lumot | elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy vositada turadigan, ma'lum bir jismoniy shaxsga oid yoki uning kimligini bilish imkonini beradigan ma'lumot |
| Shaxsiy ma'lumotni ishlash | shaxsiy ma'lumotni yig'ish, tartibga solish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, undan foydalanish, taqdim etish, tarqatish, topshirish, shaxssizlantirish va yo'q qilish bilan bog'liq bitta yoki bir qancha umumlashgan harakatni amalga oshirish |
| Shaxsiy ma'lumot turadigan baza operatori (operator) | shaxsiy ma'lumotni ishlaydigan davlat organi, jismoniy va (yoki) huquqiy shaxs |
| Shaxsiy ma'lumot subyekti | shaxsiy ma'lumot tegishli bo'lgan jismoniy shaxs |

Umumiy qoidalar

Sir saqlash siyosatining maqsadi – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, xususan, «Shaxsiy ma'lumot to'g'risida»gi Qonunga muvofiq «MIKROMOLIYA TASHKILOTI OASISCREDIT» mikromoliya kompaniyasida (bundan keyingi o'rinnlarda OASIS deyiladi) siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot qanday ishlanishini tushuntirish hisoblanadi.

Shaxsiy ma'lumot subyekti bo'lganiningiz uchun quyidagi hollarda OASIS bilan birga ishlasshingiz mumkin:

- mijoz sifatida (shartnoma munosabatlari tugaganidan so'ng ham) va bo'lg'usi mijoz sifatida;
- mijozning vakili, kafili va/yoki garov beruvchisi sifatida;
- OASIS bir marta bitim tuzadigan shaxs sifatida;
- bog'lanadigan shaxs, ishlovchi va/yoki mijoz tayinlagan jismoniy shaxs sifatida (shartnoma munosabatlari tugaganidan so'ng ham);
- OASIS xodimi, shu jumladan, unda ishlashga nomzod sifatida;
- OASIS web sahifasiga keluvchi sifatida;
- OASIS nomiga murojat topshirgan va yuqorida aytilgan toifalarga kirmaydigan jismoniy shaxs sifatida.

Siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni ishlashdan maqsad

Yuqorida aytilgan hollar OASIS quyidagi maqsad bilan siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni oladi (to'playdi) va ishlaydi:

- siz bilan o'rnatiladigan munosabatni boshqaqarish, xususan, maxsulot va xizmat taklif etish;
- Bir tomoni siz, boshqa tomoni esa OASIS bo'lgan shartnoma(lar)ni bajarish;
- bevosita va bilvosita marketing maqsadida, shu jumladan, siz yoki boshqa mijozlar OASIS mahsuloti yoki xizmatlaridan qanday foydalanayotganini bilish uchun;
- pul bilan bog'liq operatsiyalar xavfsiz bo'lislashi ta'minlash uchun: kassadagi ish, pul o'tkazish, kartalar bilan ishlash, POS terminallar, to'lov terminallari ishlashi va hk.
- qarzni undirish, shu jumladan, sudda yoki boshqa organlarda o'ziga berilgan huquqdan foydalanish yoki uni himoya qilish;
- OASISning ishi, mahsuloti, xizmati yoki xodimlariga nisbatan so'rov berish, murojat qilish, shikoyat topshirish, e'tiroz bildirish yoki surishtirish o'tkazish;
- moliyaviy jinoyatlar, qalloblik qilish holatlarini topish, surishtirish, hisobini yuritish va oldini olish;
- O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari va me'yoriy hujjalarni bajarish.

ESINGIZDA BO'LSIN! Yuqorida aytilgan shaxsiy ma'lumot ishlanadigan hollarning birortasi ham sizning manfaatingizga zarar yetkazishni maqsad qilmagan. Shaxsiy ma'lumot Operatori sifatida OASIS sir saqlash kafolatini beradi va quyidagi majburiyatlarni oladi:

- siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni sir saqlaydi va uni himoya qiladi;
- siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni noqonuniy maqsadda ishlatmaydi;

Kredit yoki qarz rasmiylashtirilganda siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot ishlanishi

Kredit so'rab bergen arizangiz bo'yicha qaror qabul qilganda OASIS siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotdan foydalanishi mumkin. Bu jarayon kreditni qaytarish imkoniyatini baholash deyiladi. Bunda siz haqingizdagagi oldingi yillardagi ma'lumot ham olinishi mumkin.

Kredit olishga ariza berilganda OASIS kredit ma'lumotingizga baho beradi, shu jumladan, quyidagi maqsad bilan Kredit byurosiga o'xshash tashkilotlarga so'rov jo'natadi:

- olingan kredit majburiyatini bajarishga imkoniyatingiz borligi tasdig'ini olish;
- bergen ma'lumotingiz to'g'ri ekanini tekshirish;
- moliyaviy qalloblikni topish va oldini oish.

OASIS oldidagi kredit majburiyatini to'liq bajarganingizdan so'ng bu haqdagi ma'lumot ham Kredit byurosiga beriladi.

Shaxsiy ma'lumot turlari

OASIS quyidagi shaxsiy ma'lumotni ishlashi mumkin:

| | |
|---|--|
| Tanittiradigan ma'lumot | <ul style="list-style-type: none"> - familiya, ism. ota ismi - jismoniy shaxsning shaxsiy tanittiradigan raqami (JSHSHTR) - shaxsiy tanittiradigan hujjatining seriyasi va raqami - tug'ilgan sanasi va joyi - jinsi - fuqaroligi |
| Bog'lanadigan ma'lumot | <ul style="list-style-type: none"> - ro'yxatga olingan va yashaydigan manzili - telefon raqami - elektron pochta manzili - masofadagi aloqa vostalri uchun bog'lanadigan va tanittiradigan ma'lumot - siz bilan muloqat qilganda OASIS siz jo'natadigan xatlardan, elektron xabarlardan oladigan boshqa bog'lanadigan ma'lumot |
| Ijtimoiy ahvol va oila haqidagi ma'lumot | <ul style="list-style-type: none"> - oilaviy ahvoli - kasbi - ishi - ish joyi, ish beruvchining nomi - kasbiy tayyorgarligi - faoliyat turi - egallagan davlat lavozimi |
| To'lovga qobiliyatini bilish uchun zárur bo'ladigan moliyaviy axborot | <ul style="list-style-type: none"> - daromad va xarajat turlari - hisobingizga kelgan to'lovlar va hisobingizdan ketgan to'lovlar haqidagi ma'lumot - kredit tarixingiz haqidagi ma'lumot - Kredit byurosiga o'xshash tashkilotlar beradigan boshqa ma'lumot - ko'chadigan/ko'chmaydigan mulk haqidagi ma'lumot - boshqa ma'lumot |
| Sharhnomalar haqidagi ma'lumot | <ul style="list-style-type: none"> - OASIS va boshqa kredit hamda nobank kredit tashkilotlari sizga taklif etadigan mahsulot va xizmatlar haqidagi ma'lumot - OASIS mahsuloti va xizmatlaridan qanday foydalanishingiz haqidagi ma'lumot |
| Suratingiz va ovozingiz haqidagi ma'lumot | <ul style="list-style-type: none"> - shaxsni tasdiqlaydigan hujjatlardagi surat yoki OASIS ofislaridagi video kuzatish kameralariga olingan surat - ovoz, shu jumladan telefonda gaplashganda yozilgan ovoz - mijoz sifatida OASIS reklama roliklarida ishtirok etishga rozi bo'lsangiz surat ham, ovoz ham |
| Maxsus shaxsiy ma'lumot | <p>O'zbekiston Respublikasining «Shaxsiy ma'lumot to'g'risida»gi Qonuni ba'zishaxsiy ma'lumot turiga, xususan quyidagi ma'lumotga, <u>maxsus</u> deb ta'rif beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - insonning irqi yoki ijtimoiy kelib chiqishi haqidagi ma'lumot - insonning siyosiy va diniy ishonchi yoki dunyoqarashi - siyosiy partiyalar va kasaba uyushmaga a'zoligi - jismoniy yoki aqliy sog'lig'i - shaxsiy hayoti va sudlanganligi haqidagi ma'lumot <p>Bunday maxsus ma'lumotni OASIS faqat sizning yozma rozililingizni olgandan so'ngva faqat Qonunda belgilangan maqsadga aniq mos keladigan bo'lsagina ishlaydi.</p> |

Siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot ishlanishining qonuniy asosi

«Shaxsiy ma'lumot tog'risida»gi Qonun 18-moddasiga ko'ra OASIS quyidagi hollardagina shaxsiy ma'lumotni ishlashga haqli bo'ladi:

- subyekt shu ma'lumot ishlanishiga ruxsat bersa, ya'ni, sizning rozililingiz olingan bo'lsa;
- subyekt bir tomoni bo'lgan sharhnomani bajarish uchun shunday ma'lumot ishlanishi kerak bo'lsa yoki subyektning oz'i bunday sharhnomalarni tuzishga bergen so'rov yuzasidan chora ko'rish zarurati bo'lsa;
- qonunchilikda belgilangan mulk egasi va (yoki) operator majburiyatini bajarishi uchun shunday ma'lumotni ishlash kerak bo'lsa;
- subyekt yoki boshqa shaxs qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun shunday ma'lumotni ishlash kerak bo'lsa;
- mulk egasi va (yoki) operator yoki uchinchi shaxsning huquqi va qonuniy manfaatlarini bajarish uchun shunday ma'lumot ishlanishi kerak bo'lsa yoki shaxsiy ma'lumot subyektlari huquqi va qonuniy manfaatlari buzilmasligi sharti bilan jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan maqsadga erishish uchun;
- shaxsiy ma'lumot kimga tegishli ekanini berkitish sharti bilan statistik yoki boshqa o'rganish o'tkazish maqsadida shunday ma'lumotni ishlash;
- agar ma'lumot ko'pchilik uchun ochib qo'yilgan manbadan olingan bo'lsa.

Qonunga ko'ra siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot qanday ishlanishi to'g'risida OASISdan quyidagi axborotni so'rashga haqqiningiz bor:

- Siz haqingizdagagi qanday ma'lumot ishlanishi;
- Siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot ishlanishining qanday qonuniy asosi borligi va ishlashdan maqsad nimaligi;
- Ma'lumot qanday ishlanishi va kimlarga berilishi.

Bundan tashqari, "Shaxsiy ma'lumot to'g'risida"gi Qonunga ko'ra agar noto'g'ri, noto'liq, eskirgan bo'lsa yoki ma'lumot qonunsiz to'plangan yoki ishlangan taqdirda o'zingiz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni o'zgartirish (shu jumladan, yangilash, qo'shimcha qo'shish), to'xtatib qo'yish, olib

tashlash yoki yo'q qilishga haqli hisoblanasiz. Biroq O'zbekiston Respublikasi qonunchilik me'yori'rlari siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot zudlik bilan olib tashlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Masalan, bunday cheklashlar jinoyatdan olingen daromadni qonunlashtirishga, terrorchilikni moliyalashga va ommaviy qirg'in qurollar tarqatilishini moliyalashga qarshi kurashga oid qonunchilik me'yorlari doirasida bo'lishi mumkin.

Siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot olinadigan manbalar

OASIS siz haqingizdagagi ma'lumotni quyidagi manbalardan olishi mumkin:

O'zingizdan olingen ma'lumot:

- OASIS mahsuloti va/yoki xizmatlaridan foydalanishga ariza berganda ko'rsatilgan ma'lumot;
- OASIS xodimlari bilan telefonda gaplashganda yoki biror OASIS filialiga borganda olingen ma'lumot;
- OASIS web sahifalari va/yoki mobil ilovalaridan foydalangandagi ma'lumot;
- OASIS manziliga oddiy pochta bilan xat jo'natganda yoki elektron xabar yuborganda yozilgan ma'lumot.

Uchinchi shaxslardan ma'lumot olish:

OASIS uchinchi shaxslarning elektron bazasida turadigan va quyidagilardan iborat bo'ladi, biroq faqat shuning o'zibilan cheklanmaydigan ma'lumotni so'rashga va olishga haqli bo'ladi:

- Kredit byurosi «Kredit ma'lumot tahlil markazi»;
- O'zbekiston Respublikasi Garov reyestri;
- Interaktiv davlat xizmatlari yagona portal;
- O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumot portal.

«Cookie» fayllari yordamida olingen ma'lumot:

«Cookie» — siz kiradigan OASIS web sahifa (boshqa saytlar) brauzerida yaratilgan matn bo'lagi.

Web sahifa Cookie fayllar yordamida sizning kelishingiz haqidagi ma'lumotni saqlab qo'yadi, masalan, yozilganlarni qaysi tilda o'qishni istashingiz va/yoki boshqa ma'lumotni eslab qoladi. Natijada keyingi safar saytga kirganingizda uning ko'rinishi siz istagandek bo'lib turadi. Cookie fayllar juda muhim vazifani bajaradi. Ularsiz internetdan foydalanish ancha qiyin bo'lar edi.

OASIS Cookie fayllar to'g'risidagi, keluvchilar qaysi sahifalarni ko'rgani va web sahifada nimalar qilgani haqidagi, xususan esa quyidagi ma'lumotni to'playdi:

- IP manzil, vosita turi, operatsion tizim va saytga kirdi sifatida qilingan brauzer;
- OASIS saytidan ochilgan sahifalar, bitta seansga sarflangan vaqt va boshqa ko'rsatgichlar;
- OASIS sahifasida siz bajargan harakat haqidagi ma'lumot: to'ldirilgan shakllar, ishlatalgan sayt interaktiv elementlari va hk.
- saytdagi kataklarni to'ldirish, to'ldirilgan vaqt va usul haqidagi ma'lumot.

ESINGIZDA BO'LSIN!

Saytdan foydalanishdan oldin Cookie faylni qabul qilishningiz va «Roziman» tugmasini bosib siz haqingizdagagi ma'lumot olinishini tasdiqlashingiz mumkin.

Agar Cookie fayllardan foydalanish siyosatiga rozi bo'lmasangiz ham OASIS saytidan foydalanishgai mikoniyatingiz bo'ladi, lekin bunday harakat Cookie fayllardan foydalanishga rozilik sifatida qabul qilinadi.

Aga rCooki efayllarni cheklamoqchi bo'lsangiz yoki OASIS saytida ular to'xtatib qo'yilishini istasangiz brauzeringiz ko'rsatgichlarini o'zgartirib uni cheklaishiz yoki to'xtatishingiz mumkin. Biroq, esingizda bo'lsin, agar Cookie fayllar to'xtatib qo'yilsa yoki olib tashlansa OASIS taklif etadigan ba'zi xizmatlardan foydalanishning imkon bo'lmaydi.

Uchinchi shaxslarga topshirib shaxsiy ma'lumotni oshkor qilish

Siyosatning 2-bobida ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi nazarda tutadigan hollarda, OASIS siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumotni bir qismini yoki hammasini quyidagi oluvchilarga topshirishi mumkin:

- ma'lum bo'lmlarda ishlaydigan o'z xodimlariga;
- bankdan tashqari kredit faoliyatini nazorat qiladigan davlat muassasalariga;
- davlat organlariga (masalan, Davlat soliq komitetiga yoki O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash departamentiga);

Kredit byurosi turida tashkil etilgan muassasalariga:

- sud ijrochilariga, davlat notariusiga, auditorlarga;
- sud instansiylariga;
- shartnomaga tuzib ishlaydigan hamkorlarga va xizmat yetkazuvchilarga: nashr etish xizmati, IT va telekommunikatsiya, qarz undiradigan xizmatlarga, turli autsorsing kompaniyalariga (OASIS funksiyalarining bir qismi bilan shug'ullanadigan tashqi kompaniyalarga) va hk.

Bundan tashqari OASIS biznesi yoki aktivlarining bir qismini sotish, topshirish yoki birlashtirish haqida qaror qabul qilishi mumkin, bu esa o'z navbatida siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga (huquqiy vorislarga, hamkorlarga va hk.) topshirilishiga olib kelishi mumkin.

Biroq ma'lumot topshirilishidan oldin OASIS tanlanadigan uchinchi shaxslar tegishli tartibda o'rganadi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq siz haqingizdagagi shaxsiy ma'lumot sir saqlanish majburiyatini shu tashkilotga topshiradi.

Shaxsiy ma'lumot saqlanadigan muddat

Qonun talablariga muvofiq shaxsiy ma'lumotni saqlash (shujumladan, arxivlash) muddati uni to'plash va ishslashdan kutilgan maqsadga erishilgan sana bilan belgilanadi va ma'lumot turiga qarab bir-biridan farq qilishi mumkin. Masalan:

- kredit olishga bergen arizangizda ko'rsatilgan ma'lumot, shu jumladan, pulni tozalash va terrorizmga qarshi kurash maqsadida ishlangan axborot, agar ariza rad etilgan bo'lsa, kredit olishga ariza imzolangan kundan boshlab 3 yil saqlanadi, agar kredit olishga ariz atasdiqlanib kredit kelishivi tuzilgan bo'lsa, kredit munosabatlari to'xtagan kundan boshlab 5 yil OASIS da saqlanadi.

– ishga olish maqsadida ishlangan ma'lumot nomzodni ishga olish tugaguncha OASISda saqlanadi.

– ma'lumot subyektining roziligi bilan reklama xabari berish maqsadi bilan ishlanganma'lumot OASIS bilan hamkorlik tugaguncha yoki rozilik bekor qilinguncha ishlanadi.

Siz istalgan vaqtda o'zingiz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotdan foydalanish cheklanishini talab qilishingiz, yoki saqlash uchun qonuniy asos yo'qligini ko'rsangiz OASISdan o'zingiz haqingizdagi shaxsiy ma'lumotni olib tashlash, o'chirish yoki foydalanmaslikni talab qilishingiz mumkin.

Yakuniy qoidalar

Sir saqlash siyosati va shaxsiy ma'lumotni ishlashga tegishli biror savolningiz bolsa quyida ko'rsatilgan aloqa kanallariorqali OASIS xodimlari bilan bog'lanishingiz mumkin.